

O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Joriy davrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. O'zbekiston sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Joriy davrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-avgust holatiga ko'ra, respublikada 63,9 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ularni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taxlil qilinganda eng katta qismi quyidagicha:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,8 mingta (20,1 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 9,0 mingta (14,0 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,5 mingta (10,2 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 5,2 mingta (8,2 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,4 mingta (6,8 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,9 mingta (6,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 3,0 mingta (4,6 %)ga to'g'ri keldi.

1-rasm. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-avgust holatiga



II. O'zbekiston sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar–iyul oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi hajmi joriy narxlarda **795,4** trln so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **7,9** foizga oshgan.

1-jadval. Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi hajmi va fizik hajm indeksi

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
O'zbekiston Respublikasi	795 447,4	107,9
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 679,2	107,3
Andijon viloyati	64 638,7	109,0
Buxoro viloyati	32 365,6	108,4
Jizzax viloyati	25 987,2	112,7
Qashqadaryo viloyati	33 836,4	108,2
Navoiy viloyati	182 712,7	106,8
Namangan viloyati	28 335,7	108,5
Samarqand viloyati	43 426,8	109,7
Surxondaryo viloyati	15 134,9	108,4
Sirdaryo viloyati ¹⁾	17 890,5	107,3
Toshkent viloyati	124 830,3	108,2
Farg'ona viloyati	39 197,6	108,4
Xorazm viloyati	23 398,2	108,3
Toshkent shahri	135 363,4	108,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati (**163,8** mln so'm), Toshkent shahri (**42,4** mln so'm) va Toshkent viloyatida (**39,3** mln so'm) qayd etildi. Ushbu hududlarda qayd etilgan natijalar respublika o'rtacha ko'rsatkichi (**20,7** mln so'm)dan yuqori bo'ldi.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **106,0** % ni tashkil etdi. Bunda Jizzax viloyati – **110,6** %, Samarqand viloyati – **107,7** % va Andijon viloyati – **107,2** % o'sish sur'ati bilan respublika ko'rsatkichidan yuqori natijaga erishdi.

¹⁾ viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini hisobga olgan holda.

2-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (oylik)

Respublika sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri keldi. Uning umumiy hajmi **690,7** trln so' mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,8** foizga yetdi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **50,2** trln so' m (**6,3** %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **50,4** trln so' m (**6,4** %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish **4,1** trln so' m (**0,5** %) hajmni tashkil etdi.

3-rasm. Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyul oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-iyul oylarida respublikamizda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi 8 xil mahsulot ishlab chiqarildi. Bular: tabiiy gaz – **21,6** mlrd m³, neft – **368,7** ming t, ko'mir – **3,5** mln t, avtomobil benzini – **731,9** ming t, dizel yoqilg'isi – **683,4** ming t, portlandsement – **12,1** mln t, ip kalava – **478,2** ming t, yumshoq bug'doy va spelta uni – **841,1** ming t.

2-jadval. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul ¹⁾	2025-yil yanvar-iyul ¹⁾	2026-yil yanvar-iyul
Avtomobil dvigatellari, dona	142 238	131 796 ²⁾	137 606
Avtomobil benzini, ming t	791,3	672,1	731,9
Dizel yoqilg'isi, ming t	624,4	673,7	683,4
Ko'mir, mln t	3,5	4,0	3,5
Neft, ming t	424,8	378,8	368,7
Tabiiy gaz, mlrd m ³	26,3	25,4	21,6
Gaz kondensati, ming t	725,7	667,9	567,5
Portlandsement, mln t	9,1	12,0	12,1

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ "UZAUTO MOTORS POWERTRAIN" AJ tomonidan 2026-yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davri bo'yicha avtomobil dvigatellari hamda silindr bloklari ishlab chiqarish hajmlariga oid ma'lumotlar alohida aniqlashtirilgan holda taqdim etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Qayta ishlash sanoatida oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi **19,1** foizni, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, charm va undan tayyorlangan buyumlar ulushi **12,4** foizni tashkil etadi. Mashina va uskunalar, kompyuterlar, elektron va optik buyumlar, elektr jihozlari, boshqa guruhlariga kiritilmagan mashina va uskunalar,

avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar, boshqa transport vositalari, shuningdek, mashina va uskunalarni ta'mirlash hamda o'rnatishdan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish ulushi **15,1** foizga, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ulushi esa **6,4** foizga tengdir.

3-jadval. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar soni
yanvar-iyul oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil ¹⁾	2026-yil
Yuk avtomobillari	2 572	3 175
Yengil avtomobillar	241 109	263 731
<i>shundan:</i>		
Maxsus yengil avtomobillar	28 953	32 445
"Cobalt"	83 167	91 140
"Damas"	51 587	47 521
"CHEVROLET DAMAS MOVE" ²⁾	-	932
"Tracker"	26 385	25 779
"Onix"	18 734	20 445
"KIA"	14 419	17 125
"Chery"	4 838	4 801
"Haval"	4 425	5 778
"BYD"	8 601	17 765

¹⁾ 2025-yilning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ 2026-yil aprel oyida 132 ta, may oyida 324 ta, iyun oyida esa 144 ta avtomobil ishlab chiqarilgan.

Elektr ta'minoti, gaz, bug' yetkazib berish va havoni konditsiyalash seksiyalari bo'yicha

2026-yilning yanvar-iyul oylarida **52 504,4** mln kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **6,4** %ga ko'p (elektr energiyasi ishlab chiqarish asosiy faoliyat turi bo'lmagan kichik tadbirkorlik subyektlari va uy xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hisobga olinmagan).

Yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmi esa **18,3** foizga kamaygan.

2026-yil yanvar-iyul oylarida ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida olinadigan gaz ishlab chiqarilmagan.

4-jadval. Elektr energiyasi va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul ¹⁾	2025-yil yanvar-iyul ¹⁾	2026-yil yanvar-iyul
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	47 905,6	49 344,4	52 504,4
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	<i>42 865,1</i>	<i>36 577,7</i>	<i>35 250,6</i>
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlari asosida) ²⁾</i>	<i>5 040,5</i>	<i>12 766,7</i>	<i>17 253,8</i>
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	14 058,0	12 387,8	10 117,6

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ Asosiy faoliyati elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'lgan kichik korxonalar.

5-jadval. Suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi va chiqindilar bo'yicha ayrim ko'rsatkichlar

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul ¹⁾	2025-yil yanvar-iyul ¹⁾	2026-yil yanvar-iyul
Oqova suvlarni chiqarib tashlash, tashish va tozalash xizmatlari, mlrd so' m	364,4	392,5	444,6
Chiqindi o'ralari, tindirgichlar va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish xizmatlari, mln so' m	232,6	237,7	241,9
To'qimachilik chiqindilari, t	10 732,7	14 492,4	15 601,8

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2014:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Ayrim hollarda uchraydigan jamlanma ko'rsatkich bilan qo'shiluvchi raqamlar o'rtasidagi katta bo'lmagan tafovutlar raqamlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

Manzil:

